

METAFORIK TERMINLARNING TURLI TILLAR DOIRASIDA OIDLIGI HAMDA ULARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.

*Asliddinova Dilorom Ramiddin qizi,
Turon universiteti,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada metafora va metaforik atamalarning turli tillar doirasida mansubligi hamda o'sha metaforalarda individual xususiyatlarning ta'siri yaqqol ochib beriladi.

Kalit so'zlar: metaforik terminlar, tillar doirasida mansublik, individual xususiyatlar, metafora, tarixiy va madaniy qarashlar va ijtimoiy va siyosiy holatlar.

О СКЛОНЕНИИ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В РАЗЛИЧНЫХ ЯЗЫКАХ И ИХ ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ.

Аннотация: В данной статье ясно раскрывается принадлежность метафор и метафорических терминов к разным языковым сферам, а также влияние индивидуальных особенностей на эти метафоры.

Ключевые слова: метафорические термины, принадлежность к языковым сферам, индивидуальные особенности, метафора, исторические и культурные взгляды, социально-политические ситуации.

ON THE INFLECTION OF METAPHORICAL TERMS IN DIFFERENT LANGUAGES AND THEIR INDIVIDUAL FEATURES

Abstract: This article clearly reveals the belonging of metaphors and metaphorical terms to different linguistic spheres, as well as the influence of individual characteristics on these metaphors.

Keywords: metaphorical terms, belonging to linguistic spheres, individual features, metaphor, historical and cultural perspectives, socio-political situations.

Kirish. Tilshunoslikda ma'lum bo'lganidek metafora bu bir predmet yoki narsani boshqa predmet yoki narsaga o'xshatish orqali yangi ma'no hosil qilishdir. Shunday ekan, har bir til o'z metaforiyasi hamda metaforik atamalarga egadir. Quydagi maqolada metaforik terminlarga va ularni tillar doirasida farqlariga hamda individual xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Azaldan, til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har bir til o'z ifoda madaniyatiga, metaforiyasiga hamda metaforik atamalarga egadir. Bundan tashqari, metaforik terminlarning qabul qilinishi va foydalanishida individual xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Metaforik terminlar xalqning

o'zining urf-odatidan, madaniyatidan, siyosiy holatidan, tarixiy an'anasidan va dunyoqarashidan kelib chiqib turli millarda turlicha bo'ladi. Masalan, , ingliz tilida "time is money" (vaqt puldir) degan metafora mavjud bo'lib, bu vaqtning iqtisodiy qadriyatini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, boshqa tillarda, masalan, o'zbek tilida vaqtga bo'lgan munosabat boshqacharoq ya'ni ko'p hollarda vaqt oltinga tengdir deb vaqtning qadriga ko'roq urg'u beriladi. Shunday qilib, metaforik terminlar tildagi madaniy qadriyatlar va tafakkur shaklini o'zida namoyon etadi.

1. Metaforaning til va madaniyatdagi o'rni.

"Metafora nafaqat tilshunoslikda ifoda vositasi, balki u inson tafakkurining mahsulidir" deydi Johnson va Lakoff (1980). Haqiqatan, metafora tilning o'xshatish vosita bo'lishidan tashqari u tilning boyitadi, nutqni go'zallashtiradi va tasavvur kuchini aks ettiradi. Biroq, metaforalar har bir tilda bir xil tarzda shakllanmaydi. Har bir til o'zining madaniyati, tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy holatiga ko'ra o'ziga xos metaforik tizimni shakllantiradi. Shu bilan birga, individual farqlar — aqliy qobiliyatlar, shaxsiy tajribalar va dunyoqarashlar — ham metaforalarning qabul qilinishi va foydalanishiga ta'sir ko'rsatadi. Lakoff va Johnson (1980)ning kognitiv lingvistika nazariyasiga ko'ra, metafora inson tafakkurining asosi bo'lib, u hayot tajribasini yangi shaklda anglashga yordam beradi. Metaforalar madaniyat va til orqali avloddan avlodga uzatiladi, har bir til o'z madaniy va tarixiy tajribalariga mos ravishda metaforik tizimga ega.

2. Har bir tilning o'ziga xos metaforik tizimi.

Har bir til o'ziga xos metaforik tizimga ega bo'lib, bu tizim tildagi so'zlar va iboralarning madaniy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kontekstga moslashishi bilan bog'liq. Masalan, rus tilida "temir yurak" (serdtsa zheleznoe) iborasi jasorat va qat'iyatni ifodalaydi, ammo ingliz tilida bu ibora shunday ma'noga ega emas.

Bu farqlar tillar o'rtasidagi madaniy tafovutni bildiradi va tarjimonlikda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli, har bir tilning metaforik tizimini o'rganish tilshunoslik, tarjimonlik va madaniyatlararo muloqot uchun muhim ahamiyatga ega.

3. Metaforik terminlarning mansubligi (tilga xosligi).

Metaforik terminlarning mansubligi ularning qaysi til va madaniyatga tegishli ekanligini anglatadi. Tilning mansubligi — til ichidagi metaforik tizimlarning madaniy va tarixiy o'ziga xosligi bilan aniqlanadi. Bu mansublik metaforik terminlarning qabul qilinishi va foydalanishida farq keltirib chiqaradi.

Masalan, ingliz tilidagi "time is money" metaforasi iqtisodiy madaniyat bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida vaqtga nisbatan bu kabi vositasi mavjud emas. Shuning uchun o'zbek tilidagi metaforalar vaqt haqida boshqacha ifodalanadi.

4. Individual xususiyatlar va metaforalar.

Metaforik terminlarning qabul qilinishi va ishlatilishida individual xususiyatlarning roli beqiyosdir.

Shaxsiy tajriba: Har bir insonning hayotiy tajribasi, o'rgangan tillari va madaniyati metaforalarga munosabatini belgilaydi.

Kognitiv qobiliyatlar: Aqliy qobiliyatlar va tafakkur darajasi murakkab metaforalarning tushunilishiga ta'sir qiladi.

Madaniy va ijtimoiy muhit: Shaxsning o'sib-ulg'aygan muhitidagi madaniy qarashlar va ijtimoiy holatlari metaforani tushunishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Tadqiqotlar (Milenković & Stamenković, 2024) shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi intellektual qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar noan'anaviy metaforalarning ma'nolarini yaxshiroq tushunishadi. Bundan tashqari, madaniy farqlar ham metaforalarning qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi.

5. Metaforalarning til o'rganish va tarjimadagi roli.

Til o'rganuvchilar va tarjimonlar uchun metaforalarni tushunish va to'g'ri talqin qilish juda muhimdir. Chunki metaforalar tilda chuqur singib ketgan bo'lib, ularning noto'g'ri talqini madaniyatlararo muloqotni murakkablashtirishi mumkin.

Individual xususiyatlarni hisobga olish til o'rganish jarayonini osonroq qiladi. Masalan, o'quvchilar o'z madaniyatlari va oldingi tajribalari asosida yangi metaforalarni qabul qilishda farq qilishlari mumkin. Bunga qarshi ravishda, ularning o'qituvchilari ko'proq millatlararo madaniy bilimga ega ekanliklari bois metafora hamda metaforik terminlarni tushunishda ustunroqdirlar.

6. Xulosa

Har bir til o'ziga xos madaniy, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy kontekstda metaforik terminlarni shakllantiradi, bu esa ularning mansubligini belgilaydi. Shuningdek, individual tafovutlar — shaxsiy tajriba, kognitiv qobiliyatlar va madaniy muhit — metaforalarning qabul qilinishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Milenković, K., & Stamenković, D. (2024). Metaphor Features and the Influence of Individual Differences on the Comprehension of Non-Literary Metaphors. *TEME*, 48(2), 423–443.
3. Tjuka, A. (2023). Cross-Linguistic Colexifications with Body Concepts: